Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 515,8 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi.

o‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo‘shgan hissasi 3,7 % ga yetdi.

## 2025-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






YAHM o‘sish sur’ati

YAHM hajmi

YAHM deflyator indeksi

YAIMga qo‘shgan hissasi

## 2025-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd so‘m* | | ***o‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2024-yil*** | ***2025-yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **25 823,4** | **29 515,8** | **105,7** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 25 462,5 | 29 059,2 | 105,7 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 360,9 | 456,6 | 106,4 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **25 462,5** | **29 059,2** | **105,7** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **9 667,3** | **10 466,2** | **102,5** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **4 890,5** | **5 662,0** | **108,4** |
| sanoat | 2 308,0 | 2 743,0 | 107,2 |
| qurilish | 2 582,5 | 2 919,0 | 109,3 |
| **xizmatlar** | **10 904,7** | **12 931,0** | **107,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 3 557,0 | 4 222,4 | 109,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 186,4 | 1 483,4 | 113,2 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 6 161,3 | 7 225,2 | 104,7 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 971,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,3 % ga yuqoridir.

## 2025-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi

*(ming so‘mda)*

| | |
|---|---|
| 2024-yil | 8 928,4 |
| 2025-yil | 9 971,6 |

## 2025-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

| | |
|---|---|
| 2024-yil | 103,0 % |
| 2025-yil | 103,3 % |

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2024-yil* | *2025-yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 98,6 | 98,5 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1,4 | 1,5 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **38,0** | **36,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **19,2** | **19,4** |
| sanoat | 9,1 | 9,4 |
| qurilish | 10,1 | 10,0 |
| **xizmatlar** | **42,8** | **44,6** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 14,0 | 14,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 4,7 | 5,1 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 24,1 | 25,0 |

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 36,0 % ni, sanoat tarmog‘i 9,4 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 44,6 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2024-yil**



- 1,4 %
- 38,0 % — Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi
- 9,1 % — Sanoat
- 10,1 % — Qurilish
- 42,8 % — Xizmatlar

**2025-yil**



- Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi — 36,0 %
- Sanoat — 9,4 %
- Qurilish — 10,0 %
- Xizmatlar — 44,6 %
- 1,5 %

Yalpi qo‘shilgan qiymat | Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,9 f.p. (2024-yilning yanvar-iyunida – 1,5 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,7 f.p. (2024-yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,9 f.p. (2024-yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2024-yil ning yanvar-iyunida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2024-yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko‘paydi.

**2025-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2025-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. o‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 102,5 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 36,0 %), sanoatda – 107,2 % (9,4 %), qurilishda – 109,3 % (10,0 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (44,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,8 % (14,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,2 % (5,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,7 % dan (25,0 %) iborat bo‘ldi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2024-y. | | 2025-y. |
|---|---|---|
| 5,6 % | YAHM | 5,7 % |
| 3,7 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2,5 % |
| 8,2 % | Sanoat | 7,2 % |
| 7,1 % | Qurilish | 9,3 % |
| 6,7 % | Xizmatlar | 7,3 % |

2025-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori koʻrsatkichlari sanoat tarmogʻida – 110,8 % va xizmatlar sohasida 110,5 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha deflyator indeksi

*(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2024- y. | 2025- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 110,4 % | 108,1 % |
| Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | 104,5 % | 105,6 % |
| Sanoat | 137,5 % | 110,8 % |
| Qurilish | 103,6 % | 103,4 % |
| Xizmatlar | 114,1 % | 110,5 % |

2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 22 168,7 mlrd so‘mni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-iyun oylarida – 19 547,5 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 76,3 % ni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida – 76,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2024-yil | 19 547,5 | 76,8 % |
| 2025-yil | 22 168,7 | 76,3 % |

